

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON MILLIY MEDIA BIRLASHMASI**



**“ALP ER TO‘NGA AVLODLARI – QORAXONIYLAR: TURKIY
DUNYO VA ISLOM OLAMI QORAXONIYLAR DAVRIDA”
xalqaro anjuman ilmiy to‘plami**



Toshkent, 16-oktabr, 2025-yil

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ MADANIYATI VA MEROSINI TADQIQ ETISH
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar:
Turkiy dunyo va islom olami
qoraxoniylar davrida**

**mavzusidagi xalqaro anjuman ilmiy
to'plami**

2025-yil 16-oktyabr

TOSHKENT- 2025

Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida [Matn] / f.f.d., prof. Q.SH. Omonovning umumiy tahriri ostida. – T.: “TDSHU” nashriyoti, 2025. – 528 b.

Mazkur to'plamda **“Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida”** mavzusidagi xalqaro anjuman maqolalari jamlangan. Unda Qoraxoniylar davlati shakllangan va taraqqiy etgan davrda Turon va keng turkiy makonda yuz bergan muhim tarixiy, etnik, diniy hamda madaniy jarayonlar ilmiy tahlil etilgan. To'plam maqolalarida IX–XIII asr boshlarida turkiy davlatchilikning rivoji, Qoraxoniylar davrida etnik va konfessional vaziyat, turkiy islom madaniyatining qaror topishi, ilm-fan va ma'rifat markazlarining faoliyati yoritilgan. Shuningdek, turkiy yozma adabiy tilning taraqqiyoti, uning xalqaro mavqei, Qur'oni karimning ilk turkiy tarjimalari hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarini o'rganishning dolzarb masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. To'plam umumiy tarixiy xotirani mustahkamlash, turkiy xalqlar o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish va Qoraxoniylar davri merosini zamonaviy ilmiy talqin asosida ommalashtirishga xizmat qiladi.

Mas'ul muharrir: f.f.d., professor Q.SH.Omonov

Nashrga tayyorchilar: PhD B.Zokirov, PhD Sh. To'laganova

Xalqaro anjuman to'plami Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashida muhokama etildi va nashrga tavsiya qilindi (29.12.2025-yil, 5-sonli bayonnoma).

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida

QORAXONIYLAR VA SOMONIYLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Raxima Alimova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada X asr oxirlarida Qoraxoniylar bilan Somoniylar davlati o'rtasidagi ayrim siyosiy munosabatlar tarixi ko'rib chiqilgan. Somoniylar davlatining zaiflashuv sabablari, Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrda harbiy yurishlari natijasida somoniylarning mulklarini egallashlari bilan bog'liq tarixiy jarayonlar o'rta asr manbalari hamda tadqiqotlar ma'lumotlariga tayangan holda yoritilgan.*

Tayanch iboralar: *Somoniylar, Qoraxoniylar, Bo'g'roxon, Ibn al-Asir, Ilikxon, Foyiq, Abu Ali, Bektuzin, Mahmud.*

Annotation: *This article examines the history of some political relations between the Karakhanids and the Samanid state at the end of the 10th century. The reasons for the weakening of the Samanid state, the historical processes associated with the conquest of Samanid territories as a result of the military campaigns of the Karakhanid state in Maverannahr, are highlighted based on medieval sources and research data.*

Key phrases: *Samanids, Karakhanids, Bugra Khan, Ibn al-Athir, Ilik Khan, Fayiq, Abu Ali, Bektuzin, Mahmud.*

X asr o'rtalarida Sharqiy Turkiston va Yettisuvda Qoraxoniylar davlati tashkil topayotgan davrda Somoniylar davlati ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi oqibatida zaiflasha boshlagan. Somoniylarga qarashli viloyatlarda hokimiyatga qarshi xalq g'alayonlarining ko'tarilishi, taxt uchun kurashlar mamlakatning inqirozini tezlashtirgan edi. Bu ikki davlat o'rtasida o'zaro munosabatlar X asr oxirlarida yaqqol ko'zga tashlana boshlagan. Somoniylar bilan turklarning o'zaro siyosiy to'qnashuvlari hali Qoraxoniylar davlati tashkil topgan davrga qadar sodir bo'lganligi tarixdan ma'lum. Masalan, IX oxiri va X asr birinchi yarmida somoniylar qo'shinlari turklarga qarshi yuborilgan va ularni bosib olgan edilar. Chunonchi, Nuh ibn Asad (819-842)ning 839-840 yillarda Isfijobni, Ismoil Somoniy (888-907)ning 893-yil Tarozni egallashi bunga misol bo'lishi mumkin¹. Nuh ibn Asad Isfijobni ishg'ol qilgach, shaharning atrofini o'rab turuvchi mudofaa devorini qurdirgan. Ismoil Somoniy shimoldan bo'ladigan turklarning tinimsiz hujumlarining oldini olish

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Бартольд В.В. Сочинение. Т. I. – М. Наука, 1963. – С. 317.

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

maqsadida ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortib, mamlakat chegaralarini mustahkamlab olgan edi. Tarixiy jarayonlar o'rganilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, Somoniylar turkiylarning hujumlaridan mulklarini himoya qilish maqsadida chegara bo'ylab mudofaa devorlari qurgan edi. Turkiylarning Movarounnahrda amalga oshirgan hujumlaridan biri 904-yilda Ismoil ibn Ahmad davrida sodir bo'lgan edi.

Shunisi xarakterliki, Somoniylar davlati bilan Qoraxoniylar davlati o'rtasida bir tomondan chegara hududlari uchun harbiy majoralar sodir bo'lib turgan bo'lsa, ikkinchidan ular bir-birlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni davom etib turgan. Har ikki davlatning Sharq bilan G'arbni bir-biri bilan bog'laydigan Buyuk ipak yo'lining ustida joylashganligi ularning har tomonlama tezda rivojlanib borishiga omil bo'lib xizmat qilgan. Somoniylar davrida o'troq aholi bilan ko'chmanchilar o'rtasida savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yilgan. Ko'chmanchilarning madaniy o'lkalar aholisi tayyorlagan mahsulotlarga ehtiyojlari borligi tufayli, ular chegara shaharlarga kelib savdo qilib, kerakli tovarlarni sotib olardilar¹.

Bu ikki davlat o'rtasidagi harbiy mojoralar haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'rta asr mualliflarining asarlarida o'z ifodasini topgan. Shunday asarlardan biri Ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" ("Mukammal tarix") kitobi bo'lib, unda X asrning oxirgi yillaridagi voqealar bayonida turklar tomonidan Buxoroni egallash jarayonlarida mamlakatning ichki ahvoli zaiflashganiga e'tibor qaratiladi.

Ibn al-Asir yuqorida tilga olingan asarida 993-yilda Qoraxoniylar tomonidan Buxoroning egallanganligi haqida ma'lumot beradi. Asarda Koshg'ar va Bolasog'undan Xitoy chegarasigacha barcha hududlar Bo'g'roxon at-Turkiy nomi bilan shuhrat qozongan Shihob ad-Davla Xorun ibn Sulaymon Ilegga qarashli ekanligi qayd etilgan². Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, turklar hukmdorlari "ileg", "elig", "ilig" yoki "elik" unvoni bilan yuritilgan. Ibn al-Asir asarda turklar hukmdorlari haqida so'z borganda, ularga nisbatan "ilek" atamasini qo'llangan³. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida turklar hukmdorlari ya'ni begga

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Бартольд В.В. Сочинение. Т. I. – М. Наука, 1963. – С. 317.

² Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнение к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. – Ташкент: «Узбекистан», 2006. – С. 155.

³ Ибн ал-Асирнинг "Ал-комил фи-т-та'рих" asari rus tilidagi tarjimasida hukmdorlarga, chunonchi, Bo'g'roxonga nisbatan "Илек" unvoni qo'llanilgan. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. – С. 155, 161, 163 ...

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

nisbatan begning ismidan keyin “elig” atamasi qo‘shib yozilgan, masalan “Kuntug‘di elig” atamasi qo‘llanilgan¹.

V.V. Bartoldning yozishiga ko‘ra, Qoraxoniylar sulolasidan birinchi bo‘lib islomni qabul qilgan hukmdor Sotuq Bo‘g‘roxon Abdulkarim bo‘lib, u 955-956 yillarda vafot etgan. Abdulkarimning nevarasi Xorun Bo‘g‘ro “Qoraxon” unvoni bilan atalgan. Xorun davlatining poytaxti Bolasog‘un bo‘lgan.

Qoraxoniylar bilan Somoniylar o‘rtasidagi jiddiy to‘qnashuvlar X asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Buning bir necha sabablari bor edi. Avvalom bor, tinimsiz urushlari, moliyaviy tanglik, qo‘shinga vaqtida maosh to‘lamaslik oqibatida harbiylar orasidagi norozilik, ichki nizolar, soliqlarning oshirilishi, taxt uchun kurashlar Somoniylar davlatini zaiflashtirib qo‘yadi. Bu vaziyat Amir Nuh II (976-997) davrida yaqqol ko‘zga tashlanib qolgan edi. Bunday sharoitdan Yettisuv va Sharqiy Turkistonda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlati foydalanib qolgan. Horun Bo‘g‘roxon 990-yilda Somoniylarning chegara viloyatlariga hujum qilib ayrim hududlarni egallaydi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, Bug‘roxonni Buxoroni bosib olishga undagan kuchlar ham bo‘lgan. Chunonchi, Xuroson noibi Abul Xasan ibn Simjuriy vafotidan keyin Xurosonni uning o‘g‘li Abu Ali boshqara boshlagan. Abu Ali amir Nuh ibn Mansurga maktub yo‘llab, otasi idora qilgan hududlarni to‘liq unga topshirishini so‘ragan. Amirdan bu taklifga rozilik javobini olgan².

Ammo amir elchisi orqali Abu Aliga emas, Foyiqqa faxriy libos hamda Xurosonga egalik yorlig‘ini topshiradi. Xuroson noibi etib tayinlangan Foyiq Hirotga Abu Ali tomonga yurish qiladi. Bu xabar Abu Aliga yetib borgach, u saralangan askarlari bilan Foyiqqa qarshi chiqadi. Bushang bilan Hirot oralig‘ida bo‘lib o‘tgan to‘qnashuvda Foyiq va uning tarafdorlari yengilib, jang maydonini tashlab Marvarrudga qarab qochadi³.

Ibn al-Asir asarda Abu Ali bilan bog‘liq voqea haqida quyidagi ma‘lumotlarni keltiradi. Ya‘ni, Abu Ali amir Nuhga maktub yo‘llab, undan o‘zini Xuroson noibligiga tayinlashni so‘ragan. Maktubga javoban amir Nuh rozilik bildiradi va butun Xurosonni boshqarishni unga topshiradi. Bu

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). – Тошкент, Фан, 1971. – Б. 120, 564, 569, 581, 587, 590 ...

² Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та’рих. – С. 155.

³ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та’рих. – С. 156.; Гарчуман Таърихи Яминӣ. Муқаддима, таҳия, таҳшия, таълиқот, луғот ва феҳристи Н.И. Ғиёсов. – Хучанд: Ношир, 2013. – С. 74.

paytda Hirot Foyiqqa qarashli edi. Abu Ali Nishopurga kelib, Xuroson aholisidan pul solig'i to'play boshlaydi. Amir Nuh Abu Alidan Xuroson aholisidan yig'ilgan soliqning bir qismini unga jo'natishni, bu mablag'lar qo'shin ta'minoti uchun sarflanishini yozadi. Ammo, Abu Ali pullarni amirga jo'natmaydi. Abu Ali bu rad javobining oqibatlaridan qo'rqib, Bo'g'roxonga maktub jo'natadi. Maktubda Bo'g'roxonni Buxorogo yurish qilishga va bu hududni Somoniylardan tortib olishga undaydi. Shu yo'l bilan Bo'g'roxonni umidvor qilib qo'yadi. Ikkalasi o'rtasidagi kelishuvga binoan, Somoniylar mulklari ikki qismga bo'lib olinishi, Bo'g'raxon butun Movarounnahr, Abu Ali esa butun Xurosonga ega bo'lishi kerak edi. Ibn al-Asirning yozishiga ko'ra, Bo'g'raxon ham bu mamlakatga ega bo'lishni orzu qilardi¹.

Foyiq esa mag'lubiyatdan keyin Marvruddada tarafdorlarini to'plab Buxoro tomonga yurish boshlaydi. Bu amir Nuhga shubhali tuyulgani uchun Foyiqqa qarshi qo'shin yuborib, uni hibsga olishni buyurgan. Buni eshitgan Foyiq orqasiga qaytib, Termizga yo'l oladi. Bundan oldinroq amir Nuh Juzjoni hukmdori Abul Horis Ahmad ibn Muhammad al-Forig'uniyga maktub yozib, Foyiq qo'shinlariga qarshi hujum qilishni buyuradi. Muhammad al-Forig'uniy katta qo'shin bilan Foyiqqa qarshi hujum qiladi. Bo'lib o'tgan jangda Foyiqning qo'li baland keladi, ularning mol-mulkini o'ljaga oladi. Shundan so'ng Foyiq mamlakatni qo'lga kiritish umidida Bo'g'roxonga xat yozadi².

Bo'g'roxon qo'shini bilan Buxoro tomon yurish qilib, Somoniylar mamlakatini birin-ketin ishg'ol qila boshlaydi. Nuh unga qarshi o'zining eng ko'zga ko'ringan harbiy katta boshliqlaridan biri Ayachni katta qo'shinga bosh qilib safarga jo'natadi. Ammo Bo'g'raxon Ayach va bir guruh sardorlarni asirga oladi, qolganlar qochib ketadilar³.

Jangda g'alabani qo'lga kiritgan Bo'g'roxonning davlatni egallash istagi jo'shib ketadi. Qo'shinlar mag'lubiyatga uchragach, amir Nuh Abu Aliga maktub yuborib, undan madad so'raydi va qo'shin bilan yordamga kelishga farmon beradi. Ammo Abu Alining Xurosonni egallash orzusi yanada kuchayganligi sababli uning xatiga javob ham bermaydi va yordam ham qilmaydi. 992-yilda Bo'g'roxon Buxoroga qarab yurish qiladi, Foyiq uni kutib oladi va ular birgalikda Buxoroni ishg'ol qiladilar. Amir Nuh esa Amudaryoning narigi tomoniga ketib, Bo'g'roxonga qarshi qo'shin to'play

¹ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – S. 156.

² Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – S. 156.

³ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – S. 156.

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

boshlaydi. So'ng Nuh Abu Aliga yordam so'rab maktub ketidan maktublar va elchilar ketidan elchilar jo'natadi¹.

Foyiq esa Bo'g'roxondan Balxga borib, uni idora qilishga ruxsat so'raydi. Bo'g'roxon unga Balxga jo'nashga ruxsat bergan².

Bo'g'roxon Buxoroda vaqtincha yashab turgan vaqtida og'ir kasalga chalinadi. Shundan so'ng u turklar mamlakatiga yo'l oladi. Bug'roxon shahardan chiqqach, Buxoro aholisi uning qo'shinlari orqasidan hujum qilib, jangchilarni qirib tashlaydi, qo'shinni talaydi va mol-mulkini talon-taroj qiladilar³. Bo'g'roxon jangchilarini talash va qirib tashlashda ularga turk-g'uzlar yordam bergan. Bo'g'roxon esa 993-yilda Qashg'arga qaytishida Qo'chqorboshi degan joyda vafot etadi⁴. Amir Nuh Bo'g'roxonning Buxorodan chiqib ketganidan xabar topgach, shaharga kirib boradi.

Ibn al-Asirning yozishiga ko'ra, "Bo'g'roxon dindor, mehribon, adolatli, yaxshi xulqli bo'lib, ulamolarni, din fidoyilarini yaxshi ko'rar, ularni e'zozlar, ularga in'omlar berar edi"⁵. Bo'g'roxondan keyin turklarni Ilikxon boshqargan⁶.

Keyingi yillarda Somoniylarning zaiflashib qolganidan foydalanib, turklar mamlakatning ayrim hududlarini ishg'ol qila boshlaydilar. Xususan, Qoraxoniylar 994-yil Farg'ona va Xo'jandni, 995-996-yil Shosh va Isfijobni, 997-yil Ustrushonani bosib oladilar.

Ibn al-Asirning qayd etishiga ko'ra, 995-996-yilda Foyiq Amuldan Movarounnahrda Nasr Ilikxon huzuriga jo'naydi. Ilikxon uni yaxshi qabul qiladi va unga yerlarini qaytarib berishga va'da beradi. Keyin u Nuhga xat yozib, Foyiqni Samarqand hokimi etib tayinlashni so'raydi. Nuh rozi bo'lib, Foyiq Samarqandda qoladi⁷. Bu holat nazarimizda Qoraxoniylar Somoniylarning katta mulklarini egallab olganliklari va hattoki amir Nuhga ta'siri kuchayib, unga so'zi o'tadigan darajaga yetganligidan dalolat beradi.

¹ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – С. 156.; Тарчумаи Таърихи Яминӣ. Муқаддима, таҳия, тахшия, таълиқот, луғот ва феҳристи Н.И. Фиёсов. – Хучанд: Ношир, 2013. – С. 79-81.

² Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – С. 157.

³ The Kitab-i-Yamini, Historical memoirs or the Amir Sabaktagin, and the Sultan Mahmud of Ghazna, Early conquerors of Hindustan, and founders of the Ghaznavide dynasty. Translated from the persun version of the contemporary arabic chronicle of Al Utbi, By the Rev. James Reynolds, B.A. – London. 1958. – P. 128.

⁴ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – С. 157.; Тарчумаи Таърихи Яминӣ. Муқаддима, таҳия, тахшия, таълиқот, луғот ва феҳристи Н.И. Фиёсов. – Хучанд: Ношир, 2013. – С. 81-90.

⁵ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – С. 158.

⁶ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – С. 158.

⁷ Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-ta'rix. – С. 161.

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

997-yilda Nuh ibn Mansur Somoniy vafot etadi. Uning vafotidan so'ng Somoniylar sulolasining ahvoli yanada og'irlashadi. Chekka o'lkalarning hukmdorlari ular bilan dushmanlik qila boshladilar. Nuhning vafotidan keyin somoniylar taxtiga uning o'g'li Mansur ibn Nuh (997-999) o'tiradi. Unga amirlar, lashkarboshilar va boshqa kishilar qasamyod qildilar. Uning davlati va mamlakatini boshqarishni Bektuzin amalga oshira boshladi¹.

Nuh ibn Mansurning vafoti xabari Ilikxonga yetib borgach, u Samarqanddan Buxoroga qarab yo'lga chiqadi. Foyiq qo'shinlari bilan Ilikxonga qo'shiladi. Ilikxonning Buxoroga kelayotganligini eshitgan amir Mansur gangib qolib, unga qarshi tayyorgarlik ko'rish o'rniga, Buxorodan chiqib, Jayhunddan kechib o'tadi. Foyiq Buxoroga kelib, amir Mansurga xizmat qilishga kelganligini ma'lum qiladi. Muallifning yozishiga ko'ra, Foyiq Buxoroning oqsoqollari va ularning boshlig'i (Bektuzin – A.R.) ni amir Mansur oldiga jo'natib, uning mamlakatga qaytib, hokimiyatni boshqarishini so'raydi. So'ng Mansur Buxoroga qaytib keladi. Amir Foyiqqa o'zining ishlarini va davlatni boshqarishni topshirgan, Bektuzinni esa Xuroson qo'shinlari qo'mondoni qilib tayinlaydi².

“Al-komil fi-t-tarix”da yozilishiga ko'ra, 998-yil Movarounnahr va Xuroson amiri Mansur ibn Nuh Bektuzin va Foyiqlar uyushtirgan fitnaning qurboniga aylanadi, amir hibsga olinib, Bektuzinning buyrug'i bilan Mansur ibn Nuh ko'r qilinadi. Taxtga uning ukasi hali yosh bola Abdulmalikni o'tqazishadi. Abdulmalik somoniylar taxtini bir yil-u yetti oy boshqaradi. Marvarrudda turgan Mahmud ibn Sobuqtegin esa Foyiq va Bektuzinga xabar jo'natib, ularni qabihlikda ayblab koyiydi. Endi Mahmudda ularga qarshi kurashish va boshqaruvda mustaqil bo'lish istagi kuchayadi va u ular bilan urushga qaror qiladi³.

Mahmud esa Xuroson uchun Foyiq va Bektuzinga qarshi bir necha bor yurish qiladi. Va nihoyat Xurosonni egallab, Somoniylardan tortib olib, bu hududni o'z mulkiga aylantiradi. Mahmud Xurosonning mustaqil va yagona hukmdoriga aylandi⁴. Mahmud Xuroson qo'shin qo'mondoni qilib ukasini tayinlaydi va uning qarorgohi etib Nishopurni belgilaydi⁵.

¹ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. – С. 163.

² Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. – С. 163.

³ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. – С. 170.

⁴ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. – С. 171.

⁵ Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. – С. 171.; Гарчуман Таърихи Яминӣ. Муқаддима, таҳия, таҳшия, таълиқот, луғот ва феҳристи Н.И. Ғиёсов. – Хучанд: Ношир, 2013.

Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va islom olami qoraxoniylar davrida

Shu orada Foyiq vafot etadi. Uning vafotidan xabar topgan Ilikxon Buxoroga yurish boshlaydi. U o'zini Abdulmalikka do'stona va mehr-muhabbat va'dalari bilan muomala qilayotgandek ko'rsatadi. Abdulmalikning odamlari uning samimiyligiga ishonib, hech qanday ehtiyot choralari ko'rmaydilar. Bektuzin va boshqa amirlar hamda lashkarboshilar uning huzuriga chiqishgan paytda, ular qo'lga olinadi. Ilikxon Buxoroga kirib keladi va amir qarorgohiga joylashadi. Abdulmalikni tutib kelib, O'zgandga jo'natgan va u shu yerda vafot etgan. Abdulmalik Somoniylar sulolasining so'nggi vakili edi. Somoniylar sulolasi tugatiladi.

Ismoil Somoniy davrida markazlashgan davlatga aylangan ulkan mamlakat qariyb bir asr yashadi. Somoniylar davlati o'rnida ikkita davlat Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari qad rostladi. Qoraxoniylarning davlat tili umumturk tili edi¹. Qoraxoniylar saltanatining eng yuksakka ko'tarilgan davrida turkiy til umumturk tili sifatida muloqot tiliga aylandi, madaniy hayot gullab yashnadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida Qoraxoniylar davrida iqtisodiy hayotning gullab-yashnagani, yuzlab hunarlar mavjud bo'lganligi bayon qilinadi. Bu davrda mamlakatda mehnat taqsimoti chuqurlashib, sohalarning ixtisoslashuvi kuchaygan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlatning zimdan zaiflashuvi, uning har tomonlama inqirozi kuchaygan bir davrda Somoniylar Markaziy Osiyo mintaqasida boshqa bir siyosiy kuch – Qoraxoniylar bilan kurashga dosh berolmadi. X asr oxirlaridagi ikki davlat o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Somoniylarning tugatilishiga va uning mulklari Qoraxoniylar davlati tomonidan egallanishiga olib keldi. Qoraxoniylar davrida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, dehqonchilik, konchilik kabi iqtisodiyotning turli sohalari taraqqiy qilgan, madaniy hayot gullab-yashnagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент. "Университет", 2007.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Бартольд В.В. Сочинение. Т. I. – М. Наука, 1963. – С. 45–597.
3. Бартольд В.В. Караханиды // Бартольд В.В. Сочинение. Т. II. Ч. I. – М. Изд-во Восточ.литературы, 1963. – С. 41-48.

¹ А.Асқаров. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент. "Университет", 2007. – Б. 85.

**Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va islom olami qoraxoniylar davrida**

4. Zamonov A. O'zbekiston tarixi. II qism. – Toshkent. “BAYOZ”, 2024.
5. Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та'рих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнение к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. – Ташкент: «Узбекистан», 2006.
6. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). – Тошкент, Фан, 1971.
7. The Kitab-i-Yamini, Historical memoirs or the Amir Sabaktagin, and the Sultan Mahmud of Ghazna, Early conquerors of Hindustan, and founders of the Ghaznavide dynasty. Translated from the persun version of the contemporary arabic chronicle of Al Utbi, By the Rev. James Reynolds, B.A. – London. 1958. – 560 p.
8. Тарчумаи Таърихи Яминӣ. Муқаддима, таҳия, таҳшия, таълиқот, луғот ва феҳристи Н.И. Ғиёсов. – Хучанд: Ношир, 2013. 420 с.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘Z.....	3
------------------	---

BIRINCHI KENGASH

QORAXONIYLAR DAVRI TARIXI, DAVLATCHILIGI VA BOSHQARUVI

<i>Doniyorov A.</i> Qoraxoniylar davri tarixshunosligi masalalari.....	5
<i>Boboyorov G’.</i> Qoraxoniylar tarixi bo‘yicha yangi ma‘lumotlar: Dod-bek bitigi, “Nasabnoma”lar.....	16
<i>Ekber Necef.</i> Dunya tarixi a‘isindan Karahanlilar`in onemi.....	29
<i>Ateş Hamza.</i> Hybrid legitimacy and plural governance: the Karahanli state tradition in comparative perspective.....	39
<i>Saidov Sh.</i> Xorazmshoxlar-Anushteginlar va Qoraxoniylar: davlatlararo munosabatlar tarixidan.....	60
<i>Alimova R.</i> Qoraxoniylar va Somoniylar o‘rtasidagi munosabatlar.....	66
<i>Tuba Tombulo‘lu, Djumaniyazova F.</i> Karahanli siyasi dushuncesinde “Kara” kavraminin anlam katmanlari.....	74
<i>Qozoqov T.</i> Sharqiy Qoraxoniylar naymanlar hukmronligi ostida.....	82
<i>Qodirov Z.</i> Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlat boshqaruv tizimi: qiyosiy tahlil.....	93
<i>Zokirov B.</i> Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyoning turkiy qabilalari etnogeografiyasiga doir ba‘zi mulohazalar.....	101
<i>Muminov U.</i> Alp Arslon va Malikshoh davrida Saljuqiylar-Qoraxoniylar aloqalari: raqobat va hamkorlik.....	112
<i>Kuldashev S.</i> The council in the state administration of the Karakhanids (based on dīwān lughāt at-turk).....	123
<i>Boyto‘rayev S., Ravshanova M.</i> Qoraxoniylar davrida siyosiy jarayonlar, ma‘naviy meros va sivilizatsiyaviy o‘zgarishlar.....	128
<i>Hamidova N.</i> Symbols of sovereignty in the Karakhanid and Seljuk empires within the tradition of turkic-islamic statehood.....	135
<i>Bo‘riyev I.</i> Qoraxoniylar sulolasi boshqaruv chog‘ida qo‘shin.....	145
<i>Rajapov P.</i> XI asr I choragida Movarounnahrda Qoraxoniylar va Saljuqiylar sulolalari manfaatlarining to‘qnashuvi	155

IKKINCHI KENGASH

QORAXONIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

<i>To‘xliyev B.</i> Qoraxoniylar davri ilm-fani Yusuf Xos-Hojib talqinida.....	161
<i>Mashhuraxon Adiljon.</i> Alp Er To‘nga timsoli turkiy xalqlar nomoddiy madaniy merosining manbai sifatida.....	174
<i>Salijanova G.</i> Qoraxoniylar hukmronligi davridagi oliy ta‘lim maskanlarining tarixiy tahlili.....	180
<i>Toshova Sh.</i> Qoraxoniylar hunarmandchiligida tarixiy xotiraning aks etishi.....	195